O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

# QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMI TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATINING AYRIM QARORLARIGA O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-son, “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son va “Ma’muriy islohotlar doirasida qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-son Farmonlari ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan vazirlik va idoralarning nomlariga o‘zgartirishlar kiritish;

shaharsozlik hujjatlarining ekspertizasi tartibotidagi huquqiy bo‘shliqlarni to‘ldirish va ekspertiza qiymatlarini muqobillashtirish;

qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi mutaxassislarni sertifikatlashda ularning test sinovlaridan olgan ballariga muvofiq obyektlarning xavf-xatar toifasiga yo‘naltirish.

2. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A. Ramatov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,
2024-yil 24-fevral,
100-son

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-fevraldagi 100-son qaroriga
ILOVA

## O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 9-martdagi 124-son qarori bilan tasdiqlangan Yoqilg‘i-energetika resurslaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun iqtisodiy jazolarni qo‘llash to‘g‘risidagi nizomda:

a) II bo‘limda:

1.1-bandda:

“b” kichik banddagi “neft mahsulotlarini” so‘zlari “neft va neft mahsulotlarini” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“d” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“d) yetkazib beruvchi hamda sotuvchi tashkilotlar tomonidan neft mahsulotlari va suyultirilgan uglevodorod gazini sifati buzilganda — yuridik shaxslarga sifati buzilgan mahsulot qiymatining 50 foizi miqdorida jarima qo‘llanilishiga asos bo‘ladi”;

1.2-bandda:

“a” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasining (keyingi o‘rinlarda — O‘zenergoinspeksiya) qo‘llaniladigan texnologiyalar va asbob-uskunalarning energiya jihatidan samaradorlik ko‘rsatkichlariga muvofiqligi hamda yoqilg‘ining muqobil turlaridan foydalanish to‘g‘risida xulosasisiz shartnomalar tuzgan holda gaz yetkazib berish gaz ta’minoti tashkilotlaridan, obyekt (qurilma)ni gaz tarmog‘idan uzib qo‘ygan holda, gaz ulangan paytdan boshlab sarflangan gazning 10 foiz qiymatini undirib olishga sabab bo‘ladi;”;

“b” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) gazdan foydalanish qurilmalarida gaz sarfini hisobga olmay turib (gaz hisoblagichsiz) o‘zboshimchalik bilan yoki gaz sarfini hisobga olish uskunalarining ulanish sxemasining buzilishi yoki ularning ko‘rsatgichlarini o‘zgartirish maqsadida tashqaridan har qanday aralashuv orqali tabiiy gazdan foydalanish — yuridik shaxslardan sarflangan tabiiy gaz qiymatining 3 baravari miqdorida jarima undirilishiga sabab bo‘ladi”;

“z” kichik band chiqarib tashlansin;

1.3-bandda:

“v” kichik banddagi “10 baravari miqdorini” so‘zlari “3 baravari miqdorida jarima” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“g” kichik band chiqarib tashlansin;

“e” kichik bandi “miqdorda” so‘zidan keyin “jarima” so‘zi bilan to‘ldirilsin;

“z” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“z) Elektr energiyasini hisobga olish uskunalari ulanishi sxemasining buzilishi yoki ularning ko‘rsatgichlarini o‘zgartirish maqsadida tashqaridan har qanday aralashuv — hisobga olish uskunalari so‘nggi marta tekshirilgan paytdan boshlab hisobga olinmasdan foydalanilgan elektr energiyasi hajmi qiymatining 3 baravari miqdorida jarima undirilishiga sabab bo‘ladi;”;

“k” kichik bandidagi “O‘zdavenergonazorat” davlat inspeksiyasi” so‘zlari “O‘zenergoinspeksiya” so‘zi bilan almashtirilsin;

b) III bo‘limda:

1-banddagi ““O‘zdavneftgazinspeksiya”ning hamda “O‘zdavenergonazorat” agentligining” so‘zlari ““O‘zenergoinspeksiya”ning” so‘zi bilan almashtirilsin;

2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Yuridik va jismoniy shaxslarning ushbu qarorda nazarda tutilgan qoidabuzarlikni sodir etganlik uchun iqtisodiy jazo qo‘llanilishi, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi.”;

3-banddagi ““O‘zdavneftgazinspeksiya” hamda “O‘zdavenergonazorat” agentligi” so‘zlari “O‘zenergoinspeksiya” so‘zi bilan almashtirilsin;

4 va 5-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin;

“4. Ushbu Nizomga muvofiq Yoqilg‘i-energetika resurslaridan, neft mahsulotlari, gaz, elektr va issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun qo‘llanilgan ma’muriy jarimalar va iqtisodiy sanksiyalarning 50 foizi budjetga o‘tkaziladi, qolgan 50 foizi O‘zenergoinspeksiyaning ixtiyorida qoladi va keyinchalik unga soliq solinmaydi.

5. Qo‘llanilgan ma’muriy jarimalar va iqtisodiy sanksiyalar o‘z vaqtida o‘tkazib berilmagan holda, aybdor shaxslardan qonunchilikda belgilangan tartibda, ya’ni Majburiy ijro byurosiga talabnoma bilan chiqqan holda majburiy undiriladi. Undiruvga qaratilgan jarayonda noaniqliklar yoki asosli e’tirozlar bo‘lgan holatlarda sud tartibida undirilishi ta’minlanadi.”;

7-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

2. Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-avgustdagi 305-son qarori bilan tasdiqlangan Obyektlar qurilishini loyihalash hujjatlarini ishlab chiqish bilan ayni bir vaqtda amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

a) 3-banddagi “Iqtisodiyot vazirligi” hamda “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi” so‘zlari tegishlicha “Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 10-bandning to‘rtinchi xatboshisidagi “Iqtisodiyot vazirligi” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 13-banddagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmalari qoshidagi qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyalari” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining hududiy nazorat inspeksiyalari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

3. Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23-dekabrdagi 496-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida Yer monitoringi to‘g‘risidagi nizomda 9-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Yer monitoringi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasining boshqa manfaatdor vazirliklari va idoralari ishtirokida amalga oshiriladi.”

4. Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 15-noyabrdagi 250-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat shaharsozlik kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

a) 5-banddagi “Arxitektura va qurilish qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda Qurilish vazirligi deb yuritiladi)” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (keyingi o‘rinlarda Qurilish va kommunal xo‘jaligi vazirligi deb yuritiladi)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 9-banddagi “Qurilish vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi” so‘zlari “Qurilish va kommunal xo‘jaligi vazirligi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 14-bandda:

birinchi xatboshidagi “Qurilish vazirligi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri loyiha ilmiy-tekshirish instituti” mas’uliyati cheklangan jamiyati (“O‘zgashkLITI” MChJ — keyingi o‘rinlarda bosh tashkilot deb ataladi) Davlat shaharsozlik kadastri sohasida vakolatli tashkilot hisoblanadi.”;

g) 16-bandning birinchi xatboshisidagi “Qurilish vazirligining” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) 20-banddagi “Qurilish vazirligi tomonidan Davlat soliq qo‘mitasi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

e) 22-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Qurilish vazirligi tomonidan Davlat soliq qo‘mitasi” so‘zlari “Qurilish va kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

j) 23-banddagi “Qurilish vazirligi vakolatli tashkilotlarining va hududiy qurilish bosh boshqarmalari” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi vakolatli tashkilotlarining va hududiy qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmalari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

z) Davlat shaharsozlik kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ilovaning 4-bandidagi “Qurilish vazirligi, “O‘zgashkLITI” DUK” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, “O‘zgashkLITI” MChJ” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-martdagi 59-son qarori bilan tasdiqlangan Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalarida:

a) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Obodonlashtirish bo‘yicha loyihalashtirish hujjatlari loyihalashtirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan tashkilotlar tomonidan shahar va tumanlarning obodonlashtirish boshqarmalari buyurtmanomalari asosida shartnomaga asosan ishlab chiqiladi.

Aholi punktlarining umumiy foydalaniladigan yerlarini obodonlashtirish bo‘yicha loyihalashtirish hujjatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar

qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmalari hamda Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashlari tomonidan kelishiladi.”;

b) 11-banddagi “Arxitektura va qurilish bo‘yicha hududiy organlar” va “Qurilish vazirligi” so‘zlari tegishlicha “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining hududiy bo‘linmalari” va “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 12-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Shaharlar va tumanlarning qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmalarining hamda Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasining bosh arxitektorlari O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining vakolatli vakillari hisoblanadi, ular:

o‘z vakolatlari doirasida obodonlashtirish boshqarmalari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda obodonlashtirish masalalari bo‘yicha ishlarni amalga oshiradilar;

tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlariga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati organlariga tegishli tashkilotlar bilan birgalikda tayyorlangan, ko‘chalarni va umumiy foydalaniladigan avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish, ta’mirlashga, zarurat bo‘lganda yangilarini qurishga, obodonlashtirilishi va ko‘kalamzorlashtirilishi kerak bo‘lgan hududlarning shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda, har xil daraxtlar va o‘simliklar turlarini ekishga taalluqli bo‘lgan takliflar va loyiha yechimlarini kiritishda obodonlashtiriladigan obyektlar egalariga ko‘maklashadi;

shaharsozlik hujjatlari va obodonlashtirish loyihalari asosida hokimliklar tomonidan tasdiqlangan ish rejalari amalga oshirilishini nazorat qiladilar hamda ularning bajarilishi yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlariga ma’lumotlar tayyorlaydi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmalari hamda Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashiga aholi punktlarining umumiy foydalaniladigan yerlarini obodonlashtirish loyihalarini ko‘rib chiqish hamda kelishish uchun kiritadilar (jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan bino va inshootlarning loyihalari o‘rnatilgan tartibda tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limlari tomonidan kelishiladi);

bino va inshootlarning loyiha hujjatlarida nazarda tutilgan obodonlashtirish ishlarini bajarishda shaharsozlik norma va qoidalariga rioya etilishini ikki qavatdan yuqori (tsokolni hisobga olmagan holda), balandligi yer yuzasidan 12 metrdan baland va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq boʻlgan yakka tartibdagi uy-joylarni, shuningdek 300 metr kubdan koʻp hajmdagi noturar bino va inshootlarning qurilishini qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyalari, ikki qavatgacha (tsokolni hisobga olmagan holda), balandligi yer yuzasidan 12 metrdan past va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrgacha boʻlgan yakka tartibdagi uy-joylarni, shuningdek 300 metr kubdan kam hajmdagi noturar bino va inshootlar qurilishini tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boʻlimlari nazorat qiladilar;

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi, viloyatlar qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi bosh boshqarmalari hamda Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmalarining belgilangan tartibda tasdiqlangan aholi punktlarining bosh rejalarini, mukammal rejalashtirish loyihalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlarini amalga oshirish yuzasidan oʻz vakolatlari doirasida choralar koʻradilar.”

6. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-maydagi 146-son qarori bilan tasdiqlangan Yer uchastkalari egalari, foydalanuvchilari, ijarachilari va mulkdorlariga yetkazilgan zararlar, qishloq xoʻjaligi va oʻrmon xoʻjaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklariga, shuningdek, yerlarning qishloq xoʻjaligi muomalasidan chiqishiga sabab boʻlgan hollarda yetkazilgan zarar oʻrnini qoplash tartibi toʻgʻrisidagi nizomning 3-bandidagi “Qurilish vazirligi qurilish” soʻzlari “Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi” soʻzlari bilan almashtirilsin.

7. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-martdagi 53-son qarori bilan tasdiqlangan Moddiy madaniy meros obyektlarini va ularga tutash hududlarni ularni obodonlashtirish va zarur holatda saqlash boʻyicha investitsiya majburiyatlari olgan holda ijaraga berish tartibi toʻgʻrisidagi nizomning $14^{1}$-bandi ikkinchi xatboshisidagi “Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi, Qurilish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi” soʻzlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi, Investitsiyalar sanoat va savdo vazirligi, Turizm qoʻmitasi” soʻzlari bilan almashtirilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 3-iyundagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasi hududlarini va hududlarining qismlarini rivojlantirishni rejalashtirishga doir

hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

a) 5-bandda:

birinchi xatboshidagi “Qurilish vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Qurilish vazirligi)” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi)” so‘zlari bilan almashtirilsin”;

ikkinchi xatboshidagi “Qurilish vazirligi” so‘zlari “Qurilish va kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

b) 8-bandning birinchi xatboshisidagi, 10-band, 18 va 19-bandlardagi, 21-bandning birinchi va ikkinchi xatboshilaridagi, 24-bandning birinchi xatboshisidagi, 26-banddagi “Qurilish vazirligi” so‘zlari tegishlicha “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 1-ilovadagi “Qurilish vazirligi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) 2-ilova izohining 1 — 4-bandlaridagi “Qurilish bosh boshqarmasi”, “Qurilish vazirining”, “Qurilish vaziri” so‘zlari tegishlicha “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi”, “Qurilish va kommunal xo‘jaligi vazirining”, “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri” so‘zlari bilan almashtirilsin.

9. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-maydagi 299-son qarori bilan tasdiqlangan Joylardagi ijro hokimiyati organlari rahbarlari uchun xizmat uy-joylarini qurish, taqsimlash, foydalanish, saqlab turish va ta’mirlashni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

8-banddagi “Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi hamda Qurilish vazirligi” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi hamda Qurilish va uy-joy-kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

9-banddagi “Qurilish vazirligi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

10. Vazirlar Mahkamasining “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlarini moddiy rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 22-iyundagi 409-son qarorida:

a) nomidagi “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) muqaddimadagi “uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish sohasi” soʻzlari “Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi tizimi” soʻzlari bilan almashtirilsin.

v) 1-banddagi “Uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish sohasi” soʻzlari “Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

g) ilovada:

nomidagi “Uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish sohasi” soʻzlari “Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

1-bandda:

ikkinchi xatboshida:

“Uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish vazirligi” soʻzlari “Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi (keyingi oʻrinlarda — Vazirlik)” soʻzlari bilan almashtirilsin;

“vazirlik va idoralarning hududiy boʻlinmalari” soʻzlari “hududiy boʻlinmalari va tizim tashkilotlari” soʻzlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish vazirligi tizimiga kiradigan davlat unitar korxonalarining (keyingi oʻrinlarda davlat unitar korxonalari deb ataladi)” soʻzlari “Vazirlik tizimiga kiradigan va oʻzini oʻzi moliyalashtiradigan (xoʻjalik hisobida faoliyat yuritadigan) tashkilotlar (keyingi oʻrinlarda — tizim tashkilotlari)” soʻzlari bilan almashtirilsin;

2-banddagi “Budjet va davlat unitar korxonalari” soʻzlari “Vazirlik va tizim tashkilotlari” soʻzlari bilan almashtirilsin;

3-banddagi “Davlat unitar korxonalari” soʻzlari “Tizim tashkilotlari” soʻzi bilan almashtirilsin;

4-bandda:

toʻrtinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Vazirlik va uning tashkiliy tuzilmasiga kiradigan tashkilotlar xodimlarining Yagona tarif setkasi boʻyicha mehnatga haq toʻlashning tasdiqlangan razryadlariga muvofiq lavozim maoshi, lavozim maoshiga ustama haqlar, bayram puli, choraklik mukofot puli hamda boshqa toʻlovlar va ustamalarni belgilashda tarif koeffitsiyenti 1,8 baravarga oshirilgan miqdorda qoʻllaniladi”;

beshinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

5-band oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin;

7-bandning birinchi xatboshisidagi “Budjet tashkilotlari” so‘zlari “Vazirlik” so‘zi bilan almashtirilsin;

8-bandda:

birinchi xatboshidagi “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi uchastkalari nazoratchilaridan tashqari, davlat unitar korxonalari” so‘zlari “Tizim tashkilotlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

to‘rtinchi xatboshidagi “chorakda” so‘zi “oyda” so‘zi bilan almashtirilsin;

9-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

4-bob nomidagi “Budjet tashkilotlari” so‘zlari “Vazirlik” so‘zi bilan almashtirilsin;

10-bandda:

“Budjet tashkilotlari” so‘zlari “Vazirlik” so‘zi bilan hamda “O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi” so‘zlari “Davlat budjeti va Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

11-banddagi “Budjet tashkilotlari” so‘zlari “Vazirlik” so‘zi bilan almashtirilsin;

12-bandda:

birinchi xatboshidagi “O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligida” so‘zlari “Vazirlikda” so‘zi bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish” so‘zlari “qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

13-banddagi “uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish” so‘zlari “qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi” so‘zlari bilan, “Budjet tashkilotlari” so‘zlari “Vazirlik” so‘zi bilan almashtirilsin;

14-bandning birinchi xatboshisidagi “Budjet tashkilotlari” so‘zlari “Vazirlik” so‘zi bilan almashtirilsin;

5-bobning nomidagi “Davlat unitar korxonalari” so‘zlari “Tizim tashkilotlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

15-banddagi “Davlat unitar korxonalari” so‘zlari “Tizim tashkilotlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

16-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

17-banddagi “Davlat unitar korxonalari” so‘zlari “Tizim tashkilotlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

18-banddagi “Davlat unitar korxonalari” so‘zlari “Tizim tashkilotlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

$5^1$ va 6-boblar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

7-bobning nomidagi “Ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

21-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“21. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda — Inspeksiya) va hududiy inspeksiyalarning xodimlari tegishligiga ko‘ra Davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantiriladi”;

22-bandda:

birinchi xatboshidagi “Ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi” so‘zlari “Inspeksiya” so‘zi bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

8-bobning nomidagi va 23-banddagi “Budjet tashkilotlarining va davlat unitar korxonalarining” so‘zlari “Vazirlik va tizim tashkilotlarining” so‘zlari bilan almashtirilsin.

11. Vazirlar Mahkamasining “Aholi punktlarini qurishda shaharsozlik va yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga qat’iy rioya etilishini ta’minlashga, shuningdek, tadbirkorlik maqsadlari uchun yer ajratish tartibini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 5-iyuldagi 467-son qarorida:

a) 3-bandning birinchi xatboshisidagi “Qurilish vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 1-ilovada:

4-bandda:

uchinchi xatboshidagi “Davlat soliq qo‘mitasi” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

to‘rtinchi xatboshidagi “Qurilish vazirligi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy-kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshidagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi” so‘zlari “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshidagi “Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi” so‘zlari chiqarib tashlansin;

7-bandda:

ikkinchi xatboshidagi “qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyalari” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining hududiy inspeksiyalari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “Qurilish vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmalari hamda tuman qurilish bo‘limlari” so‘zlari “Qurilish va uy-joy-kommunal xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmalari, Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi hamda tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limlari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

12. Vazirlar Mahkamasining ““Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 22-dekabrdagi 1013-son qaroriga 1-ilovada:

a) 6-banddagi “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 20-band o‘z kuchini yo‘qotgan hisoblansin.

13. Vazirlar Mahkamasining “Energiya resurslarini iste’mol qilish, suv ta’minoti va suv chiqarish xizmatlari ko‘rsatish, shuningdek, ijro ishini yuritish sohasida to‘lov intizomini mustahkamlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 21-maydagi 379-son qarorida:

1-ilovadagi 17 — 20-pozitsiyalarning “Bitimlarni amalga oshiruvchi yoki xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar” ustunidagi “Qurilish bo‘limlari” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limlari” so‘zlari bilan, “Qurilish vazirligi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy-kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

2-ilovadagi “1 va 5-bosqichning “subyektlar” ustunidagi hamda 2-bosqichning “tadbirlar” ustunidagi “Uy-joy-kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

14. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-avgustdagi 671-son qarori bilan tasdiqlangan Istirohat bog‘lari va yashil zonalarni tashkil etish metodologiyasi to‘g‘risidagi nizomning 24-bandidagi “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Qurilish vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

15. Vazirlar Mahkamasining “Tabiatni muhofaza qilishni ta’minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 11-oktabrdagi 820-son qaror 2-bandining “v” kichik bandida:

a) birinchi xatboshidagi “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“74 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga”;

16. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-iyundagi 494-son qarori bilan tasdiqlangan Ichimlik suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimi obyektlarida texnologik audit o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

a) 3-bandning yettinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“**texnologik audit o‘tkazuvchi** — Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat nazorat qilish inspeksiyasining hududiy inspeksiyalari;”;

b) 15-banddagi “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatiga (keyingi o‘rinlarda — Suvinspeksiya)” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatiga (keyingi o‘rinlarda — Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi nazorati inspeksiyasi)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 16-banddagi “Suvinspeksiya” va “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligiga” so‘zlari tegishlicha “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi nazorati inspeksiyasi” va “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) 17-banddagi “Suvinspeksiyaga” so‘zi “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi nazorati inspeksiyasiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) 19-bandning uchinchi xatboshisidagi “Suvinspeksiya” so‘zi “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi nazorati inspeksiyasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

e) 20-banddagi “Suvinspeksiyaga” so‘zi “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi nazorati inspeksiyasiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

j) 1-ilovada:

“Mas’ullar” ustunidagi “Suvinspeksiya” va “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi” so‘zlari tegishlicha “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi nazorati inspeksiyasi” va “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“tadbirlar” ustunidagi “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasining” va “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda — Suvinspeksiya), “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligiga” hamda “Suvinspeksiyaga” so‘zlari tegishlicha “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat nazorat qilish inspeksiyasining” va “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat nazorat qilish inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda — Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi nazorati inspeksiyasi)”, “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga” hamda “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi nazorati inspeksiyasiga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

17. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-maydagi 381-son qarori bilan tasdiqlangan Qurilish loyihalarini ekspertizadan o‘tkazuvchi yuridik shaxslarni akkreditatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

a) 18-bandning birinchi xatboshisidagi “Qurilish vazirligi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy-kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 11-bandning beshinchi xatboshisida va 17-bandning uchinchi xatboshisidagi “20” raqami “18” raqami bilan almashtirilsin.

18. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-sentabrdagi 740-son qarori bilan tasdiqlangan Hisoblangan qiymati tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga nisbatan oshib ketgan qurilish obyektlarini moliyalashtirishga ruxsat etish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

a) 4-bandning birinchi xatboshisidagi “Qurilish vazirligi, Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga” va “Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga” so‘zlari tegishlicha “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga” va “Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

) 5-banddagi “Qurilish vazirligi, Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligi” va “Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi” so‘zlari tegishlicha “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi” va “Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 6-bandning beshinchi xatboshisidagi, 7, 8 hamda 9-banddagi “Qurilish vazirligi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy-kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) Nizomga 4-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Hisoblangan qiymati tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga nisbatan oshib ketgan qurilish obyektlarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
4-ILOVA

**Qurilish (rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash) obyektlarining narxi o‘zgarishi sababli hujjatlarni taqdim etish, ularni ko‘rib chiqish va taqdim etilgan hujjatlar bo‘yicha xulosalar berish tartibi (O‘zbekiston Respublikasining kafolati ostida jalb etiladigan chet el kreditlari va O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan obyektlardan tashqari)**

SXEMASI

| Bosqichlar | Ijrochilar | Tadbirlar | Bajarish muddatlari |
|---|---|---|---|
| I bosqich | Tashabbuskor | Loyiha-smeta hujjatlariga o‘zgartirish kiritish yuzasidan asoslangan taklif tayyorlaydi va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi, Iqtisodiyot va moliya vazirliklariga kiritadi | Belgilangan muddatlarda |
| II bosqich | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi, Iqtisodiyot va moliya vazirliklari | Tashabbuskor tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi. | 10 ish kuni |
| III bosqich | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi | Ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi, Iqtisodiyot va moliya vazirliklarining xulosalarini jamlagan holda tashabbuskorga salbiy xulosa berilgan bo‘lsa, | 6 ish kuni |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | uning murojaati bo‘yicha rad javobi yuboradi. Agar ijobiy xulosa berilgan bo‘lsa, Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini Adliya vazirligi bilan kelishgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritadi. | |
| IV bosqich | Vazirlar Mahkamasi | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining yig‘ma xulosasini hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror loyihasini ko‘rib chiqadi.<br><br>Vazirlar Mahkamasining Reglamenti asosida Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorini qabul qiladi. | Belgilangan muddatlarda |
| V bosqich | Tashabbuskorlar | Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori chiqqandan so‘ng pudrat shartnomasiga tegishli tartibda o‘zgartirishlar kiritib, belgilangan tartibda moliyalashtiradi. | Belgilangan muddatlarda |

”;

d) Nizomga 4a-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Hisoblangan qiymati tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga nisbatan oshib ketgan qurilish obyektlarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
4a-ILOVA

**Qurilish (rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash) obyektlarining narxi o‘zgarishi sababli hujjatlarni taqdim etish, ularni ko‘rib chiqish va taqdim etilgan hujjatlar bo‘yicha xulosalar berish tartibi (O‘zbekiston Respublikasining kafolati ostida jalb etiladigan chet el kreditlari va O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan obyektlar bo‘yicha)**

SXEMASI

| Bosqichlar | Ijrochilar | Tadbirlar | Bajarish muddatlari |
|---|---|---|---|
| I bosqich | Tashabbuskor | Loyiha-smeta hujjatlariga o‘zgartirish kiritish yuzasidan asoslangan taklif tayyorlaydi va tegishli hujjatlar rasmiylashtirib Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi, va Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga kiritadi. | Belgilangan muddatlarda |

| | | | |
|---|---|---|---|
| II bosqich | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi | Tashabbuskor tomonidan taqdim etilgan hujjatlar koʻrib chiqiladi. | 10 ish kuni |
| III bosqich | Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi | Koʻrib chiqish natijasi boʻyicha Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi, Iqtisodiyot va moliya vazirliklarining xulosalarini jamlagan holda tashabbuskorga salbiy xulosa berilgan boʻlsa, uning murojaati boʻyicha rad javobini yuboradi. Agar ijobiy xulosa berilgan boʻlsa, Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini Adliya vazirligi bilan kelishgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi. | 6 ish kuni |
| IV bosqich | Vazirlar Mahkamasi | Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligining yigʻma xulosasini hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror loyihasini koʻrib chiqadi.<br><br>Vazirlar Mahkamasining Reglamenti asosida Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorini qabul qiladi. | Belgilangan muddatlarda |
| V bosqich | Tashabbuskorlar | Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori chiqqandan soʻng pudrat shartnomasiga tegishli tartibda oʻzgartirishlar kiritib, belgilangan tartibda moliyalashtiradi. | Belgilangan muddatlarda |

”.

19. Vazirlar Mahkamasining “Qurilish uchun moʻljallangan metall prokati ishlab chiqarishni tartibga solish va sifatli metall prokatini qoʻllash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2020-yil 17-fevraldagi 89-son qarorida:

a) 4-banddagi “Qurilish vazirligi huzuridagi Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi va hududiy inspeksiyalar” soʻzlari “Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi va qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyalari” soʻzlari bilan almashtirilsin;

b) 7-banddagi ““Oʻzstandart agentligi” soʻzlari “Oʻzbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi” soʻzlari bilan almashtirilsin.

20. Vazirlar Mahkamasining Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 134-son qarori bilan tasdiqlangan Kichik sanoat zonalari toʻgʻrisidagi nizomda:

a) 7-bandning ikkinchi xatboshisidagi va 60-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi qurilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmalari” soʻzlari “Qoraqalpogʻiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi, viloyatlar qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi bosh boshqarmalari hamda Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

b) 13-banddagi “Uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish vazirligi” soʻzlari “Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

v) 41-bandda:

ikkinchi va beshinchi xatboshilardagi “qurilish” soʻzi “qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshidagi “qurilish sohasida nazorat boʻyicha hududiy inspeksiyalar” soʻzlari “qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyalar” soʻzlari bilan almashtirilsin;

g) 55 va 56-bandlarning birinchi xatboshilaridagi “qurilish” soʻzi “qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi” soʻzlari bilan almashtirilsin.

21. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-martdagi 182-son qarori bilan tasdiqlangan Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun fuqarolarga subsidiya toʻlash tartibi toʻgʻrisidagi nizomning 6-bandidagi “Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi, Qurilish vazirligi, Moliya vazirligi” soʻzlari tegishlicha “Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin.

22. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-avgustdagi 496-son qarori bilan tasdiqlangan Obyektlarda davlat qurilish nazoratini amalga oshirish boʻyicha maʼmuriy reglamentida:

2-ilovada:

a) 29.3 band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | |
|---|---|---|---|
| 29.3 | Sud va prokuratura binolari | 30 ish oʻringacha | II |
| | | 30 ish oʻrindan ortiq | III |

”;

b) 31.24 — 31.27-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | |
|---|---|---|---|
| 31.24 | Telekommunikatsiya stansiyalari va ularning infratuzilmalari, shu jumladan, radio, radiorele, mobil va uyali aloqa stansiyalari, ma'lumotlarni saqlash va ularga ishlov berish markazlari | telekommunikatsiya binolari | III |
| | | telekommunikatsiya liniyalari, qurilma va uskunalar | II |
| | | radio, radiorele, mobil va uyali aloqa stansiyalari, machtalari, minoralari va antennalari | |
| | | server (ma'lumotlarni saqlash va ularga ishlov berish markazlari) qurilmalari, lokal kompyuter tarmoqlari | |
| 31.25 | Pochta aloqasi bog'lamasi va bo'limlari, telegraf, telekommunikatsiya bog'lamasi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi korxona, tashkilot va muassasalarga tegishli (ma'muriy va xo'jalik) obyektlar | | II |
| 31.26 | Telekommunikatsiya tarmoqlari, (tarmoqdagi taqsimlash javonlari bilan) | Mahalliy, shaharlararo va xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan:<br>mavjud quvurlar, havo simyog'och ustunlari va ko'p qavatli bino tomlaridan o'tgan optik va mis aloqa kabellari;<br>yer osti qatlamidan olib o'tiladigan aloqa kabellari. | II |
| 31.27 | Televideniye, radioeshittirish va internet tarmoqlari | kabel televideniye, radioeshittirish va "so'nggi milya" internet tarmoqlari | I |

".

23. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 636-son qarori bilan tasdiqlangan Uzoq masofada joylashgan va muhim ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarda qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishning vaxta usuli to'g'risidagi nizomning 17-bandidagi "hududiy qurilish sohasida nazorat inspeksiyalari" so'zlari "qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyalari" so'zlari bilan almashtirilsin.

24. Vazirlar Mahkamasining "Loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari reytingini hisoblash va yuritish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 9-noyabrdagi 699-son qarorida:

) 2-bandning birinchi va ikkinchi xatboshilarida hamda 3-bandning birinchi xatboshisidagi "Qurilish vazirligi" so'zlari "Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) 3-bandda:

ikkinchi xatboshidagi "Davlat soliq qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi" so'zlari tegishlicha "Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 7-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“7. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga reytinglar hisobini yuritish uchun taqdim etiladigan tegishli statistika va idoraviy ma’lumotlarning haqqoniyligi uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi, mutasaddi vazirliklar va idoralarning birinchi rahbarlari mas’ul etib belgilansin.”;

g) ilovada:

2-band va 5-bandning birinchi xatboshilaridagi, 9, 12, 19-bandlarning ikkinchi xatboshilaridagi, 20-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Qurilish vazirligi” so‘zlari tegishlicha “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. Reytinglarni hisoblash uchun O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga:

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan ish tajribasi, xodimlar, shu jumladan, malakali mutaxassislar soni, asosiy vositalar hajmi, olingan daromadlar, to‘langan soliqlar va ish haqi fondi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan qurilishi tugallangan obyektlar hajmi, shaharsozlik qonunchiligini buzish holatlarini bartaraf etish to‘g‘risida bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalarning mavjudligi va ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

boshqa mutasaddi vazirliklar va idoralar tomonidan zarur idoraviy ma’lumotlar belgilangan tartibda idoraviy elektron ma’lumotlar bazalarini integratsiya qilish orqali taqdim etib boriladi.”;

10 va 11-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Qurilish-pudrat tashkilotlari reytingini hisoblash tartibi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan qurilish-pudrat tashkilotlarining elektron ro‘yxati ularning identifikatsiya xos raqamlari (STIR, KTUT, IFUT, XXTUT, MXOBT va boshqa zarur xos raqamlar) bilan birgalikda har chorak yakunidan so‘ng keyingi oyning o‘ninchi kuniga qadar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga yuboriladi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan yuborilgan qurilish-pudrat tashkilotlarining elektron ro‘yxatini bir kun muddatda “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimida tashkil etilgan reyting dasturiga joylashtiradi;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi, mutasaddi vazirliklar va idoralar statistika va idoraviy ma’lumotlar bazalari negizida “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi bilan integratsiya qilingan dasturiy ta’minot vositasida reytingni hisoblash uchun talab etiladigan tegishli statistika va idoraviy ma’lumotlar besh kun muddatda belgilangan tartibda integratsiya qilinishini ta’minlaydi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi bilan integratsiya qilingan dasturiy ta’minot vositasida reytingning avtomatik hisoblanishi ta’minlanadi;

qurilish-pudrat tashkilotlari reytingi to‘g‘risidagi ma’lumotlar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

11. Loyiha-qidiruv tashkilotlari reytingini hisoblash tartibi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi O‘zbekiston Respublikasida shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish uchun tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslarning elektron ro‘yxatini “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimida tashkil etilgan reyting dasturiga joylashtiradi;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi, mutasaddi

vazirliklar va idoralar statistik va idoraviy ma’lumotlar bazalari negizida “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi bilan integratsiyalashtirilgan dasturiy ta’minot vositasida reytingni hisoblash uchun talab etiladigan tegishli statistika va idoraviy ma’lumotlar besh kun muddatda belgilangan tartibda integratsiya qilinishini ta’minlaydi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi bilan integratsiya qilingan dasturiy ta’minot vositasida reytingning avtomatik hisoblanishi ta’minlanadi;

loyiha-qidiruv tashkilotlari reytingi to‘g‘risidagi ma’lumotlar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.”;

13-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi va boshqa mutasaddi vazirliklar va idoralar tomonidan taqdim etilgan statistika va idoraviy ma’lumotlar asosida Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan metodikalarga muvofiq belgilangan tartibda reytinglar hisoblari yuritiladi.”;

Nizomga 3-ilovaning birinchi xatboshisidagi “Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasining taqdimnomalari” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining taqdimnomalari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

25. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 739-son qarori 3-ilova bilan tasdiqlangan Bolalar shaharchasi to‘g‘risidagi nizomning 73-bandi ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bolalar shaharchasi hududi, binolari va inshootlariga nisbatan minimal talablar O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda belgilanadi.”

26. Vazirlar Mahkamasining “Tabiiy ofatlar oqibatida aholiga yetkazilgan zararni qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2020-yil 25-noyabrdagi 747-son qarorida:

a) 4-banddagi “Qurilish vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi” so‘zlari “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 5-banddagi “Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Qurilish vazirligi huzuridagi Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi, Gidrometeorologiya xizmati markazi” so‘zlari “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 1-ilovaning 7-bandidagi “Moliya vazirligi, Qurilish vazirligi, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Qurilish vazirligi huzuridagi Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi, Gidrometeorologiya xizmati markazi” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

